TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	



OLIIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI

Mardonov Bahodir Bahronovich

Orient universiteti Samarqand kampusi
"Biznes va boshqaruv" kafedrası
professori v.v.b., i.f.d.
E-mail: boxodir82@mail.ru

Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich

Orient universiteti Samarqand kampusi
"Biznes va boshqaruv" kafedrası o'qituvchisi
E-mail: abdanovrahmatullo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqobatbardosh oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashda xususiy ta'limning ahamiyati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yoritilgan. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini ta'minlashdagi kamchiliklar keltirilgan. Shuningdek, ularning muammolari haqida fikrlar bildirilib, bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot ishida ta'lim sektorining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, xizmatlarining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari, xususiy ta'lim, raqobat, mehnat resurslari, ish haqi, YAIM, ta'lim sifati, mehnat unumdorligi, foyda, tovar, ijtimoiy xizmatlar, tadbirkorlik.

Abstract. This article examines the importance of private education in preparing competitive higher-education personnel and its role in the country's socioeconomic development. It identifies shortcomings in ensuring a competitive environment between public and private educational institutions. Opinions on these problems are expressed, and proposals for addressing them are developed. To elucidate the place of education in the country's economy, the nature of its services, and its socioeconomic significance, the study makes extensive use of scientific research methods such as scientific abstraction, analysis and synthesis, induction and deduction, statistical grouping, monographic research, and comparison.

Key words: educational services, private education, competition, labor force, wages, GDP, quality of education, labor productivity, profit, goods, social services, entrepreneurship.

Аннотация. В статье рассматривается значение частного образования в подготовке конкурентоспособных кадров высшей школы и его роль в социально-экономическом развитии страны. Показаны недостатки в обеспечении конкурентной среды между государственными и негосударственными образовательными учреждениями. Высказывается мнение об их проблемах и разрабатываются предложения по их устранению. Для выяснения места сферы образования в экономике страны, сущности её услуг и социально-экономического значения в исследовании широко использовались такие научные методы исследования, как научная абстракция, анализ и синтез, индукция и дедукция, статистическая группировка, монографическое исследование, сравнение.

Ключевые слова: образовательные услуги, частное образование, конкуренция, трудовые ресурсы, заработная плата, ВВП, качество образования, производительность труда, прибыль, товары, социальные услуги, предпринимательство.

KIRISH

XX asrning oxirlariga kelib, jahon iqtisodiyotining rivojlanishi sifat jihatidan yangi bosqichga o'ta boshladi. Hozirgi kunda mamlakatlarning xalqaro maydondagi va global iqtisodiyotdagi o'rni hamda raqobatbardoshligi ularning tabiiy boyliklari, moliyaviy resurslari yoki qurolli kuchlarining qudrati bilangina emas, balki intellektual salohiyati, yangi bilimlarni yaratish hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyati va qobiliyati bilan belgilanmoqda.



Bugungi kunda bilimlar iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga, xalq farovonligi va mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omilga aylangan. Buni yalpi mahsulot o'sishining 90 foizini ilmiy-texnik taraqqiyot belgilab berayotgan rivojlangan davlatlar tajribasi ham tasdiqlaydi [1].

Ta'lim sektorining ulkan imkoniyatlaridan oqilona va samarali foydalangan davlatlar bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot poygasida yetakchilikni qo'lga kiritib, o'z xalqi uchun munosib turmush farovonligini yaratishga erishdilar. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar — uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lidagi dadil qadamlardan biri bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tub burilish yasash imkoniyatini ochib bermoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng dastlabki yillarda ta'lim sohasi uzoq vaqt davomida davlat monopoliyasi sharoitida faoliyat yuritdi. Biroq so'nggi yillarda bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlari asosida olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim tizimida tub yangilanishlar boshlandi. Avvalgi yillardagi ayrim cheklovlar sababli ta'lim sektori orqali erishilishi mumkin bo'lgan yirik imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan bo'lsa-da, hozirda bu soha mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishining yetakchi drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Raqobat muhiti — bozor iqtisodiyotining kuchini va samaradorligini namoyon etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli ta'lim sohasida raqobatni rivojlantirish, xususan, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyatining hozirgi bosqichida ta'lim sektori har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylangan. Ta'limning qudratini o'z vaqtida anglab, uni milliy rivojlanishning strategik yo'nalishiga aylantirgan davlatlar — Yaponiyadan tortib AQSh va rivojlangan G'arb mamlakatlarigacha — bugun yuqori hayot darajasi, fan va texnologiya yutuqlari bilan ajralib turadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida Prezident ko'rsatmalari asosida hamda bevosita rahnamoligida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar barcha soha vakillarida katta umid va ishonch uyg'otmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida raqobat muhitining yaratilishi bu jarayonlarning eng muhim natijalaridan biri bo'ldi. Mazkur o'zgarishlar mamlakatimizda bilimli, tashabbuskor va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratib, ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlarining ahamiyati va uning umumiy iqtisodiy muammolari masalasini M. N. Kojevnikova [2] chuqur o'rganib chiqqan. Turizm sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim xizmatlarining o'ziga xos jihatlari esa E. S. Saxarchuk tahlil qilgan [3]. V. V. Volchik va I. M. Shiryayevlar oliy ta'lim sohasida vizual xizmatlarning insonlar uchun afzalliklari va ularning takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlaganlar [4]. Shuningdek, N. G. Muminov va G. M. Zaxirovalar oliy ta'lim xizmatlarining hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini baholashgan [5].

Mazkur olimlar ta'lim xizmatlarining nazariy asoslarini, ularni rivojlantirishning amaliy muammolari va tendensiyalarini tadqiq etgan hamda kadrlar tayyorlashdagi o'rni va ahamiyatini keng yoritganlar. Respublika olimlaridan M. M. Muhammadov "O'zbekistonda ta'lim xizmatlarining mustaqillikning dastlabki kunlaridan hozirgi davrgacha bosib o'tgan evolyutsion yo'lini va oliy ta'lim sohasining foydalanilmagan imkoniyatlarini" ilmiy asosda tahlil qilgan [6]. A. O. Ochilov esa yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularni boshqarish samaradorligini o'rganib, amaliy takliflar ishlab chiqqan [7]. S. A. Isxakova oliy ta'lim sohasida xodimlarning ish haqi tizimini, uni oshirish yo'llarini tahlil etgan va tabaqalashtirilgan yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan [8].

Shuningdek, mavzu doirasida olib borilgan boshqa tadqiqotlarda ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari, ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi imkoniyatlari, ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning ahamiyati hamda bu sohada bozor munosabatlarining shakllanish jarayoni keng tahlil qilingan. Shu bilan birga, ta'lim xizmatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ham aniqlanib, ularning iqtisodiy mexanizmlari o'rganilgan.

Yuqorida nomlari tilga olingan xorijiy va respublika olimlarining tadqiqotlarida ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, ularni rivojlantirishning ulkan salohiyatidan samarali foydalanishning metodologik asoslari to'liq yoritilmagan bo'lsa-da, mazkur izlanishlar ushbu yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy zamin yaratgan.

Nazariy izlanishlar natijalariga ko'ra, "ta'lim xizmatlari" tushunchasi kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili va harakatlantiruvchi kuchi sifatida shakllanib borganligi aniqlangan. Bu atama, asosan, davlat shaklida tashkil topgan jamiyatlarning rivojlanish jarayonlari bilan bevosita bog'liq holda yuzaga kelgan. Tadqiqotlarda [9] ta'lim xizmatlarining XX asrning o'rtalarida shakllanib, davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarida muhim rol o'ynagani ta'kidlangan.

Insoniyat tarixining avvalgi davrlarida — agrar va industrial jamiyatlarda ta'lim xizmatlari ikkinchi darajali tarmoq sifatida qaralgan bo'lsa, postindustrial jamiyatda u milliy iqtisodiyotning mustaqil va strategik ahamiyatga



ega tarmog'iga aylangan. Bugungi kunda to'rt, besh yoki sakkiz sektorli iqtisodiyot modellarida ham ta'lim xizmatlari alohida sektor sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'lim sektorining hozirgi davrdagi keng imkoniyatlari, yuqori ahamiyati va xalqaro miqyosdagi mavqei ilmiy doiralarning ham e'tiborini qaratmoqda. Ilmiy adabiyotlarda "ta'lim xizmatlari", "ijtimoiy xizmatlar", "iqtisodiy ta'lim xizmatlari", "ta'lim mahsulotlari" kabi atamalar qo'llaniladi. YuNESKO xalqaro tashkiloti mutaxassislari ta'lim xizmatlariga quyidagi ta'rifni bergan:

"Ta'lim xizmatlari — bu insonning ijtimoiy yetuklikka erishishiga, shaxs sifatida kamol topishiga hamda intellektual salohiyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi faoliyat turidir." [10]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim sektorining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini, uning xizmatlarining mohiyatini va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish hamda taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida ta'lim sektoriga, jumladan, oliy ta'lim sohasiga tadbirkorlik faoliyatini keng joriy etish uchun imkoniyatlar yaratilgani — Yangi O'zbekiston sharoitida ilm-fan va oliy ta'limni jadallik bilan rivojlantirishga qaratilgan islohotlar zanjirida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Bu, shubhasiz, mamlakat taraqqiyoti yo'lida muhim tarixiy burilish bo'lib, sohaning rivojlanishiga to'siq bo'lib kelgan davlat monopoliyasiga chek qo'yish imkonini berdi. Natijada, ta'lim tizimining iqtisodiy o'sishdagi imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan sog'lom raqobat muhiti shakllantirildi.

Oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan ushbu muhim qadam ayrim insonlar tomonidan oddiy tashabbus sifatida baholanishi mumkin. Ammo, aslida, bu o'z mohiyatiga ko'ra Yangi O'zbekiston taraqqiyoti va intellektual salohiyatining yuksalishida tub burilish yasagan, milliy rivojlanish strategiyasida alohida o'rin tutuvchi tarixiy voqealardir.

Mamlakatimizda xususiy oliy ta'lim muassasalarining tashkil topishi va faoliyat yuritishining ahamiyati hamda ijobiy ta'siri quyidagi jihatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, oliy ta'lim sohasida davlat va xususiy ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim sifatini oshirish yo'lida zarur bo'lgan raqobat muhiti shakllandi. Bu jarayon ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va yangi boshqaruv madaniyatining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ikkinchidan, ko'plab yoshlarimiz xususiy oliy ta'lim orqali o'z bilim va kasbiy salohiyatini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Uchinchidan, tadbirkorlarning moliyaviy resurslarini ta'lim sohasiga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning dolzarb muammosi — yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasini hal etish imkoniyati vujudga keldi.

To'rtinchidan, ko'plab professor-o'qituvchilar hamda yordamchi pedagogik xodimlar uchun yangi ish o'rinlari yaratildi, bu esa ularning barqaror bandligini va ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Beshinchidan, xorijda mehnat faoliyatini yuritish imkoniyatiga ega, yuqori malakali va oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash orqali xalqaro mehnat bozorida mamlakatimizning raqobatbardoshligi oshdi.

Oltinchidan, yangi oliy o'quv yurtlarining tashkil etilishi va qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi natijasida professor-o'qituvchilar mehnatiga bo'lgan talab ortdi. Bu holat ularning ilmiy-pedagogik salohiyatini qadrlash, tajribalarini baholash va rag'batlantirish tizimini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Yettinchidan, xususiy oliy ta'lim muassasalari tomonidan yaratilayotgan xizmatlar hisobidan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi ortmoqda, iqtisodiy o'sish sur'atlari esa jadallashmoqda. Xizmatlar sektorining tez sur'atlar bilan kengayishi O'zbekistonning postindustrial jamiyatga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda.

Sakkizinchidan, xususiy oliy ta'lim muassasalari faoliyati natijasida shakllanayotgan daromadlar, shuningdek, sohaga jalb etilgan xodimlarning ish haqi daromadlaridan undirilayotgan soliqlar davlat byudjeti tushumlarini sezilarli darajada oshirmoqda.

To'qqizinchidan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan inson kapitalini tezkor rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirishda xususiy oliy ta'lim sektori muhim o'rin tutmoqda.

Shu bilan bir qatorda, xususiy oliy ta'lim muassasalari faoliyatida tabiiy jarayon sifatida ayrim tashkiliy va institutsional muammolar uchrasa-da, ular bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda. Bugungi kunda bu sohada davlat tomonidan yaratilayotgan qulay huquqiy muhit, rag'batlantiruvchi mexanizmlar va investorlar uchun imtiyozlar tufayli ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga keng yo'l ochilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish — mazkur sohada yuksak natijalarga erishishning eng muhim shartlaridan biridir. Shu bois, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida xususiy sektor rivojlanishiga ta'sir etayotgan ayrim masalalarni ochiq muhokamaga chiqarish zarur.



Bizning fikrimizcha, xususiyl oliy ta'limni yanada rivojlantirish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan biri — talabalarning dastlabki bilim darajasini oshirishdir. Ma'lumki, ayrim xususiyl universitetlarda talabalarning o'qishga qabul qilinishi test sinovlarisiz, shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bu holat ayrim hollarda davlat oliy o'quv yurtlariga kira olmagan abituriyentlarga o'qish imkoniyatini beradi, ammo bu jarayon ta'lim sifati nazorati va bilim darajasini tenglashtirish bo'yicha alohida yondashuvni talab qiladi.

Shu sababli, xususiyl oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning bilim salohiyatini davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga moslashtirish ustuvor vazifadir. Bu borada o'qituvchilar tomonidan ilg'or pedagogik texnologiyalardan, innovatsion va noan'anaviyl o'qitish usullaridan keng foydalanish, talabalarni bilimga qiziqtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim muassasasining shaklidan qat'i nazar, barcha bitiruvchilarga beriladigan diplom yagona davlat talablari asosida beriladi.

Bizning nazarimizda, ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida xususiyl universitet talabalari bilim darajasining davlat universitetlari talabalari bilan solishtirganda biroz pastroq bo'lishi tabiiyl hol. Biroq bu farqni bartaraf etish imkoniyati mavjud. Eng avvalo, ta'limning ilk bosqichlaridanoq sifatli ta'limni yo'lga qo'yish, o'quv dasturlarini zamonaviyl metodika asosida takomillashtirish, raqamli o'qitish vositalarini keng joriy etish zarur.

Ijtimoiyl adolat tamoyili nuqtai nazaridan, barcha talabalarga — davlat yoki xususiyl oliy ta'lim muassasasida o'qishidan qat'i nazar — bir xil start sharoitlari va imkoniyatlar yaratish muhimdir. Bu yondashuv yuqori malakali kadrlar tayyorlashda sifatli raqobat muhitini ta'minlaydi. Aks holda, xususiyl sektor uchun ochilgan keng imkoniyatlardan kutilgan natijaga to'liq erishish mushkul bo'ladi. Shu bois, davlat tomonidan sifat nazorati, akkreditatsiya tizimi va malaka baholash mexanizmlarini yanada kuchaytirish dolzarbdirl.

Vaziyatni yanada yaxshilashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri — yoshlarning ta'limga bo'lgan munosabatini ijobiyl tomonga o'zgartirish, o'qishga mas'uliyatli yondashuvni shakllantirishdir. Bu jarayonda oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, talabalar ota-onalari bilan muntazam aloqa o'rnatish, ularni farzandlarining ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari bilan tanishtirib borish, ularning farzandlari taqdiri va kelajagiga befarq bo'lmasliklarini rag'batlantirish foydali samara beradi. Shu tarzda, ota-onalar, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ta'lim sifati, motivatsiya va mas'uliyatni oshiradi.

O'rta maktab yoki kollejda ta'lim olishga yetarlicha e'tibor bermagan yoshlar uchun universitetda o'qish imkoniyatiga ega bo'lish — bu katta yutuq va omad hisoblanadi. Ota-onalar o'z farzandlarining kelajagini ta'minlash maqsadida, mehnat bilan topgan mablag'larini ularning ta'limga beminnat sarflaydilar. Bu esa ota-onalarning farzandlari ta'limga bo'lgan sadoqati va ishonchining ifodasidir.

Biroq, ayrim holatlarda farzandlar bu ishonch va imkoniyatning qadriga to'liq yetmay, o'qishga mas'uliyat bilan yondashmaydilar. Shunday vaziyatlarda ota-onalar, farzandlarining mas'uliyatini oshirish va ularni ta'lim jarayoniga faolroq jalb etish uchun universitet professor-o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda ishlashlari muhimdir.

Ota-onalar farzandlarining kelajagini ta'minlash yo'lida o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashlari, ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini kuzatib borishlari, zarur hollarda farzandlarini rag'batlantirishlari lozim. Bu orqali o'quvchi va talabalarda ta'limga bo'lgan mas'uliyat, mehnatsevarlik va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Universitet ma'muriyati esa ushbu jarayonni samarali tashkil etishda yetakchi rol o'ynashi kerak. Ota-onalar bilan muntazam aloqalarni yo'lga qo'yish, ta'limdagi yutuq va muammolar haqida o'z vaqtida xabardor qilish, ota-onalarning ta'lim jarayonida ishtirokini kengaytirish ta'lim sifati oshirishning muhim omillaridan biridir.

Natijada, oila, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi, bu esa yoshlarning ma'naviyl va intellektual rivojlanishiga, ularning kelajakda yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu tarzda, jamiyatimizda ta'lim sifati, mas'uliyat va inson kapitalining rivojlanish darajasi yanada yuksaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, o'qishga qabul qilingan yoshlarning bilim darajasida davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlari o'rtasida mavjud farqlarni bartaraf etish hamda ular uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish muhim ilmiyl-amaliyl vazifalardan biridir. Bu masalani imkon qadar erta — o'quv jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq hal etish maqsadga muvofiqdirl. Shu bois, xususiyl oliy ta'lim muassasalari ushbu dolzarb masalani samarali hal etish imkonini beruvchi amaliyl yechimlarni ishlab chiqishlari zarur. Quyida bizning ayrim takliflarimiz keltiriladi.

Taklifning mohiyati shundan iboratki, nodavlat oliy o'quv yurtlariga qabul qilinayotgan yoshlarni ikki toifaga ajratish lozim.

Birinchi toifa — davlat test sinovlarini topshirib, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirish uchun yetarli ball to'plagan yoshlar. Bunday talabalar uchun davlat oliy ta'lim muassasalaridagi kabi o'qishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq.



Ikkinchi toifa — hech qanday kirish imtihonisiz xususiy oliy ta'lim muassasasida o'qishni tanlagan yoshlar. Ularning bu tanlovi turli sabablarga ko'ra shakllanishi mumkin: test sinovlarida yetarli ball to'play olmaganlik, imtihonda qatnashishni istamaslik yoki boshqa individual omillar. Ushbu toifadagi talabalar uchun xususiy oliy ta'lim muassasasi faqat birinchi kurs davomida o'qishni kafolatlaydi.

Keyingi bosqichda, ushbu talabalar o'qishni davom ettirish uchun 3–4 ta asosiy fan bo'yicha sinov imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishlari lozim. Bu orqali ular kelgusida oliy ma'lumotli, malakali va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanish salohiyatiga egaliklarini amalda isbotlaydilar. O'ziga yaratilgan imkoniyatlardan yetarlicha foydalana olmagan talabalar esa boshqa sohalarida o'zlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunday tizim natijasida, xususiy oliy o'quv yurtlarining ikkinchi bosqichiga o'tgan paytda talabalar bilim darajasi va kasbiy salohiyati davlat oliy ta'lim muassasalari talabalari darajasiga tenglashadi. Eng muhimi, o'qishning dastlabki bosqichidayoq davlat va nodavlat ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida mavjud bo'lgan bilim darajasidagi tafovut bartaraf etiladi.

Mazkur yondashuv ta'lim tizimida sifatni oshirish, sog'lom raqobatni shakllantirish va malakali kadrlar tayyorlashda muhim natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu mexanizm xususiy oliy ta'lim muassasalarining nufuzini mustahkamlash, ularni davlat ta'lim tizimining to'Bo'lajak talabalarni toifalar bo'yicha tabaqalashtirish jarayonida motivatsiya mexanizmlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, birinchi toifadagi abituriyentlar uchun o'qish to'lov miqdorini davlat universitetlariga nisbatan 10 foizga kamaytirish, ikkinchi toifadagilar uchun esa 10 foizga oshirish — ta'limga bo'lgan mas'uliyat va raqobatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabalar o'rtasida intilish, o'z ustida ishlash va bilim olishga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi.

Amaliy tajriba va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda aksariyat xususiy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini oshirishda asosiy e'tiborni o'qituvchilar va talabalar bilimini nazorat qilishga qaratgan. Bu, albatta, ijobiy hol, biroq ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun faqat dars mashg'ulotlari sifatini oshirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Bizningcha, xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yanada oshirish imkonini beruvchi qo'shimcha ichki resurslar mavjud va ulardan samarali foydalanish zarur. Quyida ana shunday imkoniyatlarning ayrimlari keltiriladi:

Birinchidan, universitetda asosiy fanlar bo'yicha ilmiy to'garaklar tashkil etish zarur. Bu talabalar uchun chuqur bilim olish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. O'quv rejasidagi dars soatlari fanni to'liq o'zlashtirish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin, ayniqsa bazaviy bilimlari sustroq bo'lgan talabalar uchun bu juda muhim. Tajribali o'qituvchilar rahbarligida tashkil etilgan ilmiy to'garaklar talabalar bilimini mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ilmiy faoliyatga jalb etishda samarali vosita bo'ladi.

Ikkinchidan, yoshlar va ularning ota-onalari orasida xususiy ta'limga nisbatan ba'zan uchraydigan ishonchsizlik va ikkilanish hissini bartaraf etish lozim. Ba'zi ota-onalar yoki abituriyentlar o'rtasida "xususiy oliy ta'lim muassasasini bitirgan kishi ishga joylashishda qiyinchilikka duch keladi" degan noto'g'ri qarash mavjud. Aslida, bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchilar kadrlarni tanlashda ta'lim muassasasining mulk shakliga emas, balki mutaxassisning kasbiy mahorati, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlariga e'tibor qaratadilar. Shu bois, xususiy ta'lim muassasalari o'z bitiruvchilarining mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun sifatli ta'lim va amaliy tayyorgarlikni ta'minlashi lozim.

Uchinchidan, talabalar o'rtasida keng ko'lamli tarbiyaviy ishlarni olib borish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ko'plab talabalar, ayniqsa o'rta maktab yoki kollejda o'qishning ahamiyatini to'liq anglamagan yoshlar, xususiy universitetga o'qishga kirgach, yangi imkoniyatlar dunyosiga kiradilar. Shunday talabalar bilan o'qishning mohiyati, bilim va mehnatning hayotdagi ahamiyati haqida muntazam suhbatlar tashkil etish, yetakchi olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish va muvaffaqiyatli bitiruvchilar tajribasini targ'ib qilish ularda o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

To'rtinchidan, yoshlar va professor-o'qituvchilar salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhimdir. Har bir insonda, ayniqsa ijodiy sohaga yaqin ta'lim jarayonida, hali to'liq namoyon bo'lmagan ichki salohiyat mavjud. Shu salohiyatni rag'batlantirish, ularni ijobiy natijaga yo'naltirish uchun moddiy va ma'naviy rag'bat tizimlarini takomillashtirish zarur.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, sport sohasida sportchilar yutuqlarining ortishiga aynan samarali moddiy rag'batlantirish tizimi katta turtki bergan. Xuddi shunday yondashuvni ta'lim tizimiga ham joriy etish orqali professor-o'qituvchilar va talabalar faoliyatida yuqori natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, mehnat intizomini mustahkamlash maqsadida, belgilangan mezonlarga rioya qilmagan holatlarda rag'batga qarshi chora sifatida moddiy jazolash mexanizmini ham adolatli tarzda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimining raqobatbardosh bo'lishi, ya'ni mehnat bozorida talabni qondirishi uchun, eng avvalo, uning sifati iste'molchi — ya'ni o'quvchi, talaba va ish beruvchi ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Shunday ekan, ta'lim sifati — ta'lim tizimining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil bo'lib qoladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Glazyev. Kak postroit' novuyu ekonomiku. Ekspert, 21-fevral 2012-yil. URL: http://www.glazev.ru/econom_polit/294/.
2. Kojevnikova M. N. Mir lyudey. Uchit' zhit' vmeste, v radosti, v dobre. Napravlenie sotsial'no-emotsional'no-eticheskogo obrazovaniya v gumanisticheskoy paradigme rossiyskogo obrazovaniya. Monografiya. – Sankt-Peterburg: Izdatel'stvo RKhGA, 2023. – 307 s.
3. Saxarchuk E. S. Analiz zarubejnyx modeley podgotovki kadrov dlya sfery turizma. Monografiya. – Knorus, 2022.
4. Volchik V. V., Shiryayev I. M. Distantсионное высшее образование в условиях самоизоляции и проблема институциональных ловушек. // Aktual'nye problemy ekonomiki i prava. 2020. T. 14, № 2. S. 235–248.
5. Muminov N. G., Zaxirova G. M. Natsional'nyy universitet Uzbekistana – kolybel' universitetskogo obrazovaniya i akademicheskoy nauki v regione. Monografiya. Seriya: "Yevraziyskiye universitety XXI veka". Moskva, 2022. – S. 290–304.
6. Muxammedov M. M. O'zbekiston iqtisodiyotining tarixi: Amir Temur davridan to hozirgi kungacha. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2022. – 440 bet.
7. Ochilov A. O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2019. – 76 bet.
8. Isxakova S. A. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi daromadlari. Monografiya. – SamDCHTI, 2021. – 204 bet.
9. Kanunnikova A. M. Eksport obrazovatel'nykh uslug Rossii v usloviyakh sovremennykh vyzovov razvitiya global'noy ekonomiki. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskikh nauk. – Moskva, 2024. – 182 s., S. 26.
10. Organizatsionnyye voprosy sistemy obrazovaniya. Elektronno-uchebno-metodicheskij kompleks. – Rejim dostupa: http://www.kgau.ru/distance/mf_01/timofeeva-orgosn-obr/2_2.html (murojaat sanasi: 10.12.2024).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>